XALQ DEPUTATLARI PAXTAKOR TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 27-oktabr VII-16-159-3-52-K/25 Paxtakor tumani

Paxtakor tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Paxtakor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030 yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 23-iyundagi PF–98-son Farmoniga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o‘tkazilganligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda

majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Paxtakor tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda Paxtakor tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining Paxtakor tumani hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi **quyidagi** takliflari ma’qullansin:

xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 81 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun (12 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun (5 kishi);

kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun (45 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun (14 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun (3 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun (2 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

3. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida **quyidagilar:**

davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **1-ilovaga** muvofiq;

xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Paxtakor tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Paxtakor tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to‘g‘risida Paxtakor tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘larini to‘lab berilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni 3-, 13-, 34-, 38-, 39-, 40-, 41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Paxtakor tumani Kengashining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

8. Paxtakor tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (O‘.To‘xtamishev):

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1 va 2-ilovalarda ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha xalq deputatlari Paxtakor tumani Kengashining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun

tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

9. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb- saytiga joylashtirilsin.

10. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Paxtakor tumani Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish” masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Z.Jumaboyev va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Shodmonov zimmalariga yuklatilsin.

11. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi



ANDAYEV AXMAD RUSTAMOVICH

Xalq deputatlari Paxtakor tumani Kengashining
2025-yil 27-oktabrdagi
VII-16-159-3-52-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Paxtakor tumanida 2026 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli

RO‘YXATI

T/p	Tashkilot nomi	Tashkilotning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:					
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
JAMI:			**3908**	**3**	**75**	**12**	**4**	**42**	**12**	**3**	**2**
1	RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN NARKOLOGIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZINING JIZZAX VILOYAT MINTAQAVIY FILIALI	200342494	215		6	2	1	2	1		0
2	PAXTAKOR TUMANI DAVLAT SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIYA NAZORAT MARKAZI	201025531	43		1			1			
3	PAXTAKOR TUMANI TIBBIYOT BIRLASHMASI	201025491	824	2	16	4	2	5	3	1	1
4	PAXTAKOR TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB	201026253	41		1				1		

	TA'LIMI BO'LIMI										
5	PAXTAKOR TUMANI HOKIMLIGI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI	201025570	93		2					1	1
6	JANUBIY MIRZACHO'L KANALIDAN FOYDALANISH BOSHQARMASI	201455535	221		4	1		1	1	1	
7	PAXTAKOR TUMANI 14-SONLI BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABI	202503023	61		1			1			
8	PAXTAKOR TUMANI 10-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	203558714	48		1				1		
9	PAXTAKOR TUMANI 2-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	205213421	56		1			1			
10	PAXTAKOR TUMANI 6-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	205923875	55		1				1		
11	JIZZAX VILOYAT SIL KASALLIKLARI SHIFOXONASI	206793183	74	1	2	1		1			
12	PAXTAKOR TUMANI 17-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206877323	76		1				1		
13	PAXTAKOR TUMANI 6-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206877330	71		1			1			
14	PAXTAKOR TUMANI 1-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206880352	83		1				1		
15	PAXTAKOR TUMANI 13-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206889410	55		1			1			
16	PAXTAKOR TUMANI 9-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206877347	107		2	1		1			
17	PAXTAKOR TUMANI 5-SONLI UMUMIY O'RTA	206877354	68		1				1		

	TA'LIM MAKTABI										
18	PAXTAKOR TUMANI 2-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206889481	134		2	1	1				
19	PAXTAKOR TUMANI 3-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206885574	93		1			1			
20	PAXTAKOR TUMANI 4-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206887667	102		2	1		1			
21	PAXTAKOR TUMANI 7-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206909850	119		2	1		1			
22	PAXTAKOR TUMANI 8-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206885844	74		1			1			
23	PAXTAKOR TUMANI 11-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206885614	84		1				1		
24	PAXTAKOR TUMANI 12-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206885836	85		1			1			
25	PAXTAKOR TUMANI 13-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207005472	62		1			1			
26	PAXTAKOR TUMANI 14-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206885582	63		1			1			
27	PAXTAKOR TUMANI 15-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206886755	39		1			1			
28	PAXTAKOR TUMANI 16-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206886748	59		1			1			
29	PAXTAKOR TUMANI 18-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206905176	36		1			1			
30	PAXTAKOR TUMANI SPORT MAKTABI	206885607	80		1			1			
31	PAXTAKOR TUMANI 5-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	205213414	48		1			1			

32	PAXTAKOR TUMANI 3-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207052090	24		1			1			
33	PAXTAKOR TUMANI 4-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207035665	46		1			1			
34	PAXTAKOR PEDAGOGIKA KOLLEJI	207031956	42		1			1			
35	PAXTAKOR TUMANI 1-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207035673	28		1			1			
36	PAXTAKOR TUMANI 9-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207036521	44		1			1			
37	PAXTAKOR TUMANI 8-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207035658	39		1			1			
38	PAXTAKOR TUMANI 7-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207035697	34		1			1			
39	PAXTAKOR TUMANI 14-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207052108	39		1			1			
40	PAXTAKOR TUMANI 15-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207052115	38		1			1			
41	PAXTAKOR TUMANI 19-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	308072055	65		1			1			
42	PAXTAKOR TUMANI 20-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	308105241	45		1			1			
43	PAXTAKOR TUMANI 16-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	308351214	27		1			1			
44	PAXTAKOR TUMANI QISHLOQ XO'JALIK KASB HUNAR KOLKEJI	200339609	73		1			1			
45	PAXTAKOR SANOAT TEXNOLOGIYALARI TEXNIKUMI	205267283	58		1			1			

46	PAXTAKOR TUMANI 11-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	311363895	37		1			1			

Xalq deputatlari Paxtakor tumani Kengashining
2025-yil 27-oktabrdagi
VII-16-159-3-52-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Paxtakor tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli RO‘YXATI

T/p	Tashkilot nomi	Tashkilotning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:			
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar
Jami:			**627**	**0**	**6**	**0**	**1**	**3**	**2**
1	"PAXTAKOR TEKS" mas`uliyati cheklangan jamiyati qo'shma korxonasi	304894285	627	0	6		1	3	2